

Yodimizda va ardog'imizdasiz

2023 5 May

Xotira abadiy, xotira muqaddas - azaliy qadriyatlarimizdan biri. Vatan tinchligi, osoyishtaligi, ozodligi uchun kurashganlarning jasorati hech qachon unutilmaydi.



Jasorat ko'rsatib, Vatan uchun kurashganlarni e'zozlash va xotirasini yodga olish aviakompaniyaning yorqin an'analaridan biridir. Shu munosabat bilan xotira va qadrlash kuni arafasida bir guruh Uzbekistan Airways ekipaji va yosh xodimlari Ikkinci Jahon urushi faxriylari bilan birqalikda halok bo'lgan harbiy uchuvchilar va urush qatnashchilar xotirasini yod etdi.



Uzbekistan Airways bundan buyon ham an'analarga sodiq qolgan holda qahramonlarni yodga oladi va ulug'laydi.

